



HSK TIZIMI ASOSIDA XITOIY TILI O`QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Charos Hamdamova

(“Ipak yo`li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada HSK (Hanyu Shuiping Kaoshi) standartlari asosida xitoy tilini o`qitish tizimini takomillashtirish, xitoy tilini o`rgatishda HSK darajalarining o`quv jarayonidagi o`rni, so`z boyligi, grammatik birliklar va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, tinglab tushunish, nutq amaliyoti, yozma savodxonlik va zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish bo`yicha takomillashtirish yo`nalishlari taklif etiladi. Maqolada HSK asosida samarali o`qitish metodlari, dars mazmunini standartlarga moslashtirish hamda o`quv jarayonini optimallashtirish haqidagi ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so`zlar: HSK, xitoy tili o`qitish, til kompetensiyasi, o`qitish metodikasi, tinglab tushunish, leksika, grammatika, kommunikativ yondashuv.

Аннотация: Данной статье рассматриваются вопросы совершенствования системы преподавания китайского языка на основе стандартов HSK (Hanyu Shuiping Kaoshi). Анализируется роль уровней HSK в учебном процессе, их влияние на формирование лексических, грамматических и коммуникативных компетенций учащихся. Предлагаются направления повышения эффективности обучения, включая развитие навыков аудирования, устной речи, письменной грамотности, а также использование современных цифровых платформ. В статье представлены научные выводы о путях оптимизации содержания занятий и методик преподавания в соответствии со стандартами HSK.

Ключевые слова: HSK, преподавание китайского языка, языковая компетенция, методика обучения, аудирование, лексика, грамматика, коммуникативный подход.



Abstract: *This article examines the improvement of Chinese language teaching based on HSK (Hanyu Shuiping Kaoshi) standards. It analyzes the role of HSK levels in the learning process and their impact on the development of students' lexical, grammatical, and communicative competencies. The study proposes methods for enhancing teaching effectiveness, including better listening comprehension training, speaking practice, writing skills development, and the integration of modern digital platforms. The article presents scientific conclusions on optimizing teaching methodologies and aligning curriculum content with HSK requirements.*

Keywords: *HSK, Chinese language teaching, language competence, teaching methodology, listening comprehension, vocabulary, grammar, communicative approach.*

So`nggi yillarda O`zbekiston va Xitoy o`rtasidagi keng ko`lamda olib borilayotgan ishlarning natijasi o`laroq, xitoy tiliga bo`lgan qiziqish ortib bormoqda. Talabalar, abituriyentlar va mutaxassislarning HSK (Hànyǔ Shuǐpíng Kǎoshì) imtihonini topshirishga bo`lgan talabining ham oshgani bunga yaqqol misol. Til o`qitish jarayonida asosiy standartlardan bir sifatida foydalanib kelinayotgan ushbu tizimning borgan sari murakkab va mukammalashayotgani sari, ushbu imtihon darajalarining aspektlari ham ayrim o`zgarishlarga uchradi. Shu sababli, xitoy tilini yangi o`rganayotgan talaba yoki xitoy tilini o`zlashtirgan mutaxassis bo`lishidan qat`iy nazar, ma`lum bir ravishda imtihon to`g`risida ma`lumot va puxta tayyorgarlikka ega bo`lishi lozim. Shu bois, xitoy tilini o`qitish jarayonida eng zaruri bu samarali metodika yaratish bo`lib qolgan hozirgi paytda HSK talablari asosida xitoy tilini o`qitish tizimini takomillashtirish, o`quv jarayonini standartlashtirish, o`rganuvchi kompetensiyalarini aniq baholash va mustahkamlash zarurati mavjud.

Avvalambor, o`qitish jarayonida HSK tizimining o`qitish jarayonidagi o`rnini to`g`ri tushuntirish kerak: HSK quyidagi aslida quyidagi afzalliklarni beradi. Ushbu imtihon sertifikatini orqali til o`zlashtirishni bosqichma-bosqich rejalash, so`z boyligini me`yorlash, grammatik birliklarni darajalar bo`yicha ajratish, talabaning til ko`nikmalarini (tinglab tushunish, o`qish, yozish) tizimli baholash. O`qitishda HSK



darajalari quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi. Hech qanday tushunchalarsiz xitoy tilini o`rganishni boshlagan boshlovchilar 2500 dan ortiq so`z va atamalarni o`zlashtirgan holda, C1 sertifikatini qo`lga kiritisa, 5000 dan ortiq belgini o`zlashtirgan holda, xitoy tilini ona tilidek o`zlashtirishlari mumkin.

Xitoy tilini o`rgatishda HSK tizimidan foydalanar ekanmiz, ushbu yo`nalishda dars mazmunini HSK darajalariga moslashtirish imkoni mavjud bo`ladi. Har bir darajada: so`z boyligi, grammatik birliklar, matn turlari, kommunikativ vazifalar aniq belgilanadi. Masalan: HSK 2: vaqt, joy, buyruq gap, fe'llar bilan so'roq, HSK 4: sabab-oqibat (因为...所以...), ehtimol darajasi (可能), HSK 6: murakkab iqtibosli gaplar, akademik leksika. Nutq amaliyotini kuchaytirishda esa HSK imtihonlaridagi asosiy to'siq — gapira olmaslik. Shu bois, darslarda: Juftlik ishlari, rol o`ynash, debat va munozara, real vaziyatli mashqlar kamida 20–30% vaqt egallashi kerak. Tinglab tushunish materiallarini ko`paytirish. HSKning eng qiyin qismi — 听力 tinglab tushunish bo`lib, uni takomillashtirish yo`li sifatida quyidagilarni ko`rishimiz mumkin: original audiolar bilan ishlash, HSK 3–6 uchun qisqa podkastlar, film / seriallardan qisqa bo`laklar, tinglab raqamlashtirish mashqlarini misol qilishimiz mumkin. So`z yodlashning ilmiy tizimida esa samarali usul sifatida spaced repetition (oraliqli takrorlash), anki yoki Quizlet kartochkalari, tematik guruhlash: transport, sog`liq, tabiat, etimologiya — iyeroglifik tarkib orqali eslab qolishlarni misol qilishimiz mumkin. Yozma savodxonlikni HSK yozma talablariga moslash jarayonida HSK 4–6 da yozuv juda muhim bo`lib, gapni qayta tuzish mashqlari, matn rejalash, soddadan murakkabga insho yozish, o`quvchi nutqidagi iyeroglif xatolarini tahlil qilish.

Raqamli platformalar rivojlangani sari, ushbu platformalardan foydalanish ancha qulaylikni yaratmoqda. Zamonaviy o`qitish jarayonida, DuChinese, Chairman's Bao, Ninchanese, HSK Online, Super Test, WeChat mini-programlar, o`qituvchi tomonidan tayyorlangan digital materiallar ham motivatsiyani oshiradi. Xitoy tili o`qituvchilari uchun metodik tavsiyalar sifatida esa, darsni 4 komponentga bo`lish: 听–说–读–写, har darsda mini-HSK mashqlar kiritish, o`quvchilarni



darajalarga mos guruhlarga ajratish, real hayotga mos situatsion topshiriqlar bajarish, HSK oldidan mini-mock testlar bajarish, talabalarning individual qiyinchiliklarini aniqlash (fe'llar, grammatik struktura, iyerogliflar, tinglab tushunish) kabilar misol bo`ladi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizki, HSK asosida xitoy tilini o`qitish o`quv jarayonini standartlashtirib, natijaviy qiladi, o`quvchilarni aniq darajalar bo'yicha rivojlantiradi va albatta xalqaro talablarga moslashtiradi. Takomillashtirilgan metodika yordamida talabalarda mustahkam kommunikativ kompetensiya, boy so'z boyligi, aniq grammatik bilim va yuqori tinglab tushunish ko'nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jiang Liping (蒋丽萍). HSK Standard Course 1–6. Beijing Language and Culture University Press. 2014–2018.
2. Hanban / CLEC (孔子学院总部/国家汉办). 汉语水平考试大纲 (HSK Test Syllabus). Beijing Language and Culture University Press. 2015.
3. Ministry of Education of China (教育部). International Chinese Language Education Standards (国际中文教育中文水平等级标准). 2021.
4. Abduvakhobova, U. (2025). PRAGMATIC ASPECTS OF LANGUAGE IN TEACHING ENGLISH. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 6(01), 11–18. <https://doi.org/10.37547/mesmj-V6-I1-02->
5. Baymatova, M. A. (2026). MODERN KOREAN LANGUAGE: DEVELOPMENT TRENDS AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 7(01), 227–235. <https://doi.org/10.37547/mesmj-V7-I1-28>
6. Yakubova, M. (2026). INTERCULTURAL COMMUNICATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING: THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ANALYSIS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 7(01), 415–422. <https://doi.org/10.37547/mesmj-V7-I1-50>